

"Uch avlod uchrashuvi"



Ushbu tadbirda Termiz shahridagi barcha mahallalardan "Keksalar maslahati" guruhi rahbarlari, "O'zbekiston qahramoni" unvoni sohibi, turli sohalarda fidokorona mehnat qilib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan nuroniylar, oliy ta'lim muassasalari professorlari, maktab o'qituvchilari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faol hamda probatsiya va profilaktik hisobda turuvchi yoshlar ishtirok etishdi.

Turli millat vakillarini mushtarak maqsad yo'lida bir davraga jam qilgan tadbir doirasida "Nuroniylar jamg'armasi" respublika boshqaruvi bo'lim boshlig'i M.Umarov, "Nuroniylar jamg'armasi" respublika bosh mas'ul xodimi U.Rahmatov, 95 yoshni qarshilagan Sharofiddin ota, o'rta yosh vakillari, yutuqlarga erishib kelayotgan shijoatli yoshlar nutq so'zladilar. 3 avlod vakillari dildan suhbat qurishdi. Samimiy muloqotlarda nuroniylar va o'rta avlod vakillari tomonidan mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmatini yuksaltirish, xalqimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish ustuvor vazifaga aylangani ta'kidlandi.

El suygan san'atkorlarning ona Vatan, do'stlik, ezgulik, hamjihatlik, mehr-muhabbat va tinch-totuv hayot tarannum etilgan kuy-qo'shiqlari barchaga yuqori kayfiyat

ulashdi. Tadbir yakunida nuroniylar mamlakat tinchligi va ravnaqi hamda xalqimiz farovonligini tilab, duoga qo'l ochishdi.